

IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR HAYOTIGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TALQINDA

Nurnmatova Iroda Akramdjonovna

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası
o'qituvchisi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori Sotsiologiya yo'nalishi*

Saidjonova Sabo Hayitboy qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga sotsiologik ta'siri o'rganiladi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, shaxs shakllanishi, psixologik holati hamda madaniy, axloqiy va siyosiy faolligiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasidagi ijtimoiy izolyatsiya, kiberzo'ravonlik, noqonuniy daromad kabi salbiy ta'sirlari bilan birga, ularning fuqarolik faolligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishdagi ijobiy roli va shaxsiy rivojlanishdagi ijobiy ta'sirini ham ko'rsatib o'tiladi. Sotsiologik yondashuv asosida yoshlarni onlayn maydonlardan ongli foydalanishga yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, sotsiologiya, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy shaxs, onlayn muloqot, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy salomatlik, kiberzo'ravonlik, madaniy faollik, siyosiy faollik, virtual jamoatlar, axborot texnologiyalari, internet, fuqarolik faolligi

Annotation: article explores the sociological impact of social networks on the lives of young people. It analyzes how social media affects their social relationships, personality formation, psychological state, as well as cultural, moral, and political activity. The article highlights not only the negative effects of social networks among youth—such as social isolation, cyberbullying, and illegal income—but also their positive role in fostering civic engagement, social adaptation, and personal development. Based on a sociological approach, the study emphasizes the importance of guiding young people toward conscious and responsible use of online platforms.

Keywords: social networks, youth, sociology, social relations, social personality, online communication, social isolation, mental health, cyberbullying, cultural activity, political activity, virtual communities, information technologies, internet, civic engagement.

Аннотация: данной статье изучается социологическое влияние социальных сетей на жизнь молодежи. Анализируется, как социальные сети воздействуют на социальные отношения, формирование личности, психологическое состояние, а также на культурную, моральную и политическую активность молодежи. В статье рассматриваются не только негативные последствия использования социальных

сетей, такие как социальная изоляция, кибербуллинг и незаконное получение доходов, но и их положительная роль в развитии гражданской активности, социальной адаптации и личностного роста. С социологической точки зрения подчеркивается необходимость направлять молодежь к осознанному и ответственному использованию онлайн-платформ.

Ключевые слова: социальные сети, молодежь, социология, социальные отношения, социальная личность, онлайн-общение, социальная изоляция, психическое здоровье, кибербуллинг, культурная активность, политическая активность, виртуальные сообщества, информационные технологии, интернет, гражданская активность.

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo'lmish ijtimoiy tarmoqlarni chetlab o'tolmaymiz. Joriy vaqtda ijtimoiy tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi ko'radi. Kimga internetda o'z rasmlarini qo'yish, olis masofadagi do'stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o'yinlar o'ynash, musiqa tinglash va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish, statuslarni tinmay o'zgartirish yoqmaydi deysiz? Agar biz ijtimoiy tarmoqlar soniga va ularning turlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy o'zaro aloqalarining yangi shakllarini yaratdi. Yuzma-yuz muloqot o'rniga onlayn muloqot keng tarqaldi. Sotsiologik nuqtai nazardan, bu jarayon yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasiga va guruh ichidagi munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi⁴². Masalan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni turli qiziqish va qadriyatlarga asoslangan kichik ijtimoiy guruhlariga birlashtiradi, har bir shaxs o'zini qiziqtirgan guruhga birlashadi bu esa ularning ijtimoiy identifikatsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Biroq, Bauman va boshqa zamonaviy sotsiologlar ta'kidlaganidek, onlayn muloqot yuzaki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va o'tkir ijtimoiy bog'lanishlarni keltirib chiqarishi mumkin⁴³. Bu holat yoshlarning ijtimoiy izolyatsiyasi, yolg'izlik his qilishiga olib kelishi ehtimoli mavjudligini ko'rsatadi.

⁴² Karimova, M. (2020). Axborot texnologiyalari va yoshlar: Sotsiologik tahlil. "Ijtimoiy fikr" ilmiy jumali, №2, 45 – 52.

⁴³ Bauman, Z. (2003). Liquid Modernity. Polity Press.

Sotsiologiyada identitet(shaxs) tushunchasi yoshlarning jamiyatdagi o'zini va o'z-o'zini anglash jarayonini ifodalaydi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning identitetini shakllantirishda maydon vazifasini o'taydi. Yoshlar o'z profil va postlari orqali o'zlarini ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan shaklda ko'rsatishga harakat qiladi. Bu borada Goffmanning «taqdimot nazariyasi»ga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda har bir foydalanuvchi o'zini «scena»da qanday ko'rsatishni boshqaradi⁴⁴, bu esa ijtimoiy rollarning ijrosidir. Bu jarayon yoshlarning o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ham yuzaki va ko'pincha ijtimoiy bosim ostida bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ham ijtimoiy ta'sirini ko'rsatadi. Onlayn maydonda yoshlar o'zaro munosabatda bo'lib, o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlashni oladi, bu ularning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi. Ammo, kiberzo'ravonlik, yolg'on ma'lumotlar tarqalishi va virtual jamiyatdagi ijtimoiy bosim yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi sotsiologlar internetning «ikkinchi shaxsiylik» funksiyasiga urg'u berib, yoshlarning onlayn hayot va real hayotdagi ijtimoiy rollari o'rtasidagi ziddiyatlarga e'tibor qaratadilar. Bu ziddiyat yoshlarning psixologik muvozanatini buzishi, asabiy qilib qo'yishi va internet olamidagi o'zi uchun mukammal deb hisoblagan shaxslarga ularning firk- mulohazalariga tobe qilib qo'yishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlaryoshlarning madaniy va siyosiy faolligigaham katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni madaniy va siyosiy faol bo'lishiga rag'batlantiradi. Ushbu platformalar orqali yoshlar o'z fikrlarini ifoda etadi, jamiyatdagi muhim muammolar haqida bahs yuritadi, harakatlarda ishtirok etadi. Bu jarayon yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelgan «virtual jamoatlar» yoshlarning siyosiy identiteti va ijtimoiy faolligini shakllantirishda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologik nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bu platformalar yoshlarning ijtimoiy munosabatlarini, identitetini, psixologik holatini va madaniy-siyosiy faolligini tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy ta'sirlarini chuqur o'rganish va yoshlarni onlayn maydondan ongli foydalanishga o'rgatish sotsiologik tadqiqotlarning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

⁴⁴ Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life. Anchor Books.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bauman, Z. (2003). Liquid Modernity. Polity Press.
2. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life. Anchor Books.
3. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell.
4. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.
4. Boyd, D. (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.
5. Shirky, C. (2008). Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations. Penguin Press.
6. Qodirov, B. (2021). Yoshlarning ijtimoiy faolligi va internet: Zamonaviy muammolar va yechimlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
7. Karimova, M. (2020). Axborot texnologiyalari va yoshlar: Sotsiologik tahlil. “Ijtimoiy fikr” ilmiy jurnali, №2, 45–52.